XALQ DEPUTATLARI G'OZG'ON SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 10-mart VII-19-19-5-210-K/26 G‘ozg‘on shahar

2026-yilda G‘ozg‘on shahri bo‘yicha “Alkogol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini oshirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarori ijrosini ta’minlash hamda Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlar, agrar, qurilish, kommunal sohalar, ekologiya, sanoat va transport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyaning 2026-yil 6-martdagi DKQ 03-01/4-26-sonli qaroriga muvofiq, xalq deputatlari G‘ozg‘on shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi PQ-387-sonli qarori bilan xalq deputatlari shahar Kengashlariga *“Alkogol mahsulotlari”*ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan *“Alkogol mahsulotlari”*ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini 20 foizgacha oshirish vakolati berilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2026-yil uchun G‘ozg‘on shahar hududida “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning miqdorlari **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (N.Zoyirov), shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari (S.Boboyev), shahar soliq inspeksiyasi (S.Raimov)lar mazkur qarorni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

4. Xalq deputatlari G‘ozg‘on shahar Kengashi deputatlari “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlar bo‘yicha jamoatchilik nazorati o‘rnatish tavsiya etilsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining “Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlar, agrar, qurilish, kommunal sohalar, ekologiya, sanoat va transport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi, hamda qarorning ijrosini ta’minlash shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (N.Zoyirov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **RO‘ZIYEV ZUXRIDDIN MUHIDDINOVICH**

Xalq deputatlari G‘ozg‘on shahar
Kengashining
2026-yil 10-martdagi
VII-19-19-5-210-K/26 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig‘imlar stavkalari

Yig‘im turi	**Bir oyga (so‘mda)**	
	O‘RQ-1105-sonli Qonuni 9-ilovasiga asosan belgilangan chegaralangan stavkalar	**2026-yil uchun to‘lanadigan yig‘im miqdori**
“Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	300 000	300 000
Umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	150 000	150 000